



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING BUYRUG'I

2025 y. " 20 " iyun

N^o 01-10/131

Oylik ish haqi saqlangan holda xodimning malaka oshirish kurslarida ishtirokini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashning 2025-yil 5-mart kuni o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturi"ning 26.1-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati Korrupsiyaga qarshi komplyens nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi Aralov Dadaxon Rashitxanovichning oylik ish haqi saqlangan holda "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"da korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish va zimmasiga yuklatilgan xizmat vazifalarini samarali amalga oshirishga qaratilgan maxsus chuqurlashtirilgan o'quv kurslarida malaka oshirishi tashkil etilsin.

2. Xodimning malakasini oshirish bilan bog'liq xarajatlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Xarajatlar Agentlikning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

3. Yoshlar ishlari agentligi:

Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov)ga xodimning malaka oshirish kurslarida ishtirokini ta'minlash;

Davlat xaridlarini tashkil etish, energiya tejamkorligini ta'minlash va xo'jalik bo'limi (I.Ziyodilloev)ga ilovada keltirilgan xizmatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda xarid qilish;

Moliya-iqtisod bo'limi (J.Rasulov)ga xarajatlar uchun belgilangan pul mablag'larini belgilangan tartibda amalga oshirish vazifalari yuklansin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish o'z zimmamda qoldiraman.

**Direktorning
birinchi o'rinbosari**



D. Kattaxanova

Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2025-yil 20-iyundagi 01-10/131 -son buyrug'iga
ilova

**Xodimning malakasini oshirishi bilan bog'liq
XARAJATLAR SMETASI**

№	Xarajat nomi	Malaka oshirish davri	To'lov miqdori (so'mda)
1.	Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi - Aralov Dadaxon Rashitxanovichning malakasini oshirish	2025-yil iyun - iyul	78 751
Jami (yetmish sakkiz ming yetti yuz ellik bir)			78 751